

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogik instituti Boshlang'ich ta'lif
fakulteti 3v-guruh talabasi
Usenbaeva Gozzal*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya darslarini qiziqarli qilib o'tish va tarbiya darslarida foydalaniladigan zamonaviy metodlar haqida aytilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Tarbiya darslari, boshlang'ich sinf, darslar, zamonaviy metodlar, o'quvchilar, o'qituvchi.

Tarbiya darsliklari haqida gapirishdan oldin tarbiya atamasiga töxtalib ótsak. Umumiy o'rta ta'lif muassasalarini o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqr singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lif muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1 — 9-sinflarda — 2020/2021 o'quv yilidan, 10 — 11-sinflarda esa — 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi:

"Tarbiya" fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lifning davlat ta'lif standartini va o'quv dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

2020-yil 10-iyulga qadar 2020/2021 o'quv yiliga umumiy o'rta ta'lif muassasalarining 1 — 9-sinflari uchun hamda 1-dekabrga qadar 2021/2022 o'quv yiliga 10 — 11-sinflar uchun mo'ljallangan "Tarbiya" fani bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik majmualarga buyurtmalarni shakllantirsin;

2020-yil 15-iyulga qadar 1 — 9-sinflar hamda 2021-yil 1-mayga qadar 10 — 11-sinflar uchun mo'ljallangan "Tarbiya" fani bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik majmualarni chop etish bo'yicha istisno tariqasida deklaratsiya qilingan narxlar asosida davlat va xususiy nashriyot-matbaa tashkilotlari bilan shartnomalar tuzsin;

"Tarbiya" fanidan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yangi o'quv yili boshlangunga qadar chop etishni tashkil etsin va ularning joylarga yetkazilishini ta'minlasin kabi qarorlar qabul qilinadi.

Jamiyat azolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish jamiyat rivoji uchun zarur bolgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi „inson kapitali” ni tayyorlash madaniyatlarni kuzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini taminlash malum jins, yoshi ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda va ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish . Tarbiya jarayonida tarbiyalanivchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga hos bulgan anotamik, fizalogik va pisixologik xususuyatlardir. Masalan; mas'uliyat tuyg'usini boshlangich ta'lif, o'rta ta'lif va o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lif olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda maskur sifatni shakillantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Tarbiya - insonni ma'naviy, axloqiy, jismoniy, ruhiy sifatlarini shakllantiruvchi pedagogik jarayon.

1.Maktabda tarbiya fanining o'qitilishi 1-2-sinflarda tarbiya fanini o'rgatish bu o'quvchida tarbiyaning rivojlanishi uchun sabab bo'ladi. Bunda o'quvchi birinchi bo'lib o'zidan katta odamlarga salom berishni o'rganadi.Masalan: Assalomu aleykum degani sizga sog'lik tilayman degani .Kattalar esa bunga javoban valaykum assalom deyishi ya'ni sizga ham sihat- salomatlik tilayman deyilishini tushuntirib beradi. Tarbiya fani o'quvchilarda bilim,ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlaydi. “Milliy tiklanish-milliy yuksalish sari”g'oyasi mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga chuqur singdirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish orqali mas'ulyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik kabi fazilatlarni tarbiyalashni amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan. Tarbiya fani vazifalari:

- bolani maqsad qo'ya olish va unga intilishga undash;
- milliy g'urur va iftixon, e'tiqod hislarini ularda shakllantirish;
- moddiy va ma'naviy merosga hurmat tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida zamonaviy metodlardan foydalanish uchun quyidagi yondashuvlar ayniqsa samarali ekaniga o'xshaydi:

Interfaol metodlar, didaktik o'yinlar:

- Guruhlarda muhokama, rolli o'yinlar, savol-javob va bahs-munozara o'tkazish orqali o'quvchilarning fikrlash, hissiy va ijtimoiy kompetensiyalari rivojlanadi. Misol: “bilim olish sirlarini” mavzusida interfaol metodik tavsiyalar berilgan, bu o'quvchilarning darsda faol ishtirokini ta'minlaydi.

Gamifikatsiya , STEAM, loyiha asosidagi yondashuv.

Zamonaviy maqolada o‘quvchilarning faolligini oshirishda gamifikatsiya, STEAM integratsiyasi, loyiha–yondashuvi tavsiya etilgan. Bu usullar dars jarayonini nafaqat qiziqarli qiladi, balki shaxsiy va mutaxassis sifatidagi o‘sishga xizmat qiladi.

Raqamli va multimedya texnologiyalari.

Elektron darsliklar, multimedia taqdimotlar, animatsiyalar – bu vositalar talabalarning e’tiborini jalb qiladi va tushunishni osonlashtiradi. Arxivdagi tadqiqotlarda animatsiya va vizual materiallar yordamida ertangi energiya berilgan darslar o‘quvchilarda sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib kelgani aytildi.

Hissiy-intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalar.

“Happiness Curriculum” (Delhi, Hindiston) kabi dasturlar hissiy ong, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishni maqsad qiladi — bu tarbiya darslari uchun ham mos yondashuv. Shuningdek, Fransiyada boshlang‘ich sinflarda empatiya darslari o‘qitilishi bo‘yicha tashabbuslar mavjud.

Tajriba va faol-o‘quv yondashuvarlar.

Experiential education (tajribaga asoslangan o‘quv yondashuvi) — real hayotiy vaziyatlar va refleksiyani uyg‘unlashtirib, farzandlarni o‘zlariga va jamiyatga mas’uliyatli qiladi. Activity-based learning, ya’ni amaliy faoliyatga asoslangan o‘quv, xuddi Hindistonda qo’llanilganidek, avtonom fikrlash va mustaqil o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Virtual/Reallik kengaytirilgan texnologiya (VR/AR)

AR/VR texnologiyalari orqali etika yoki tarbiya asoslari o‘quvchilarga interaktiv shaklda yetkaziladi: arxiv tadqiqotlari AR asosidagi o‘yin modellari foydali ekanini ko‘rsatgan. Virtual sayohatlar yordamida dunyoqarash va madaniy farqlarni his qilish mumkin.

Tarbiyaning mazmuni shahsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar, mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas balki aniq fikr bilan boglash g‘oyat muhimdir. Ta’lim tarbiya jarayonining izchil, uzlucksiz, tizimli hamda intilishi aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi mazkur jarayonda fanlar aro aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning, birligiga tayangan holda ish ko‘rish ko‘zlangan maqsadga erishishning kafolatidir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/tarbiyaning-maqsad-va-vazifalari>
2. <https://lex.uz/docs/-4885018>
3. <https://fayllar.org/1-4-sinf-tarbiya-darsliklarini-tahlil-qilish.html>
4. Boshlang‘ich sinf "Tarbiya" darsliklari